



“AKTYORLIK MAHORATINI SHAKLLANISH BOSQICHLARI”


Tursunov Eldor Sheraliyevhich

Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

“Aktyorlik va xoreografiya san'ati” bo'limi katta o'qituvchisi

Umumiy olganda teatr san'ati uchun tarbiyalanayotgan mutaxassis-kadrlarning kasbga yo'naltirishni nimadan va qanday boshlamoq kerak, degan savol to'g'ridan to'g'ri tug'ilishi mumkin. Chunki aktyorlik san'ati o'qitiladigan maktablarida turli qarash va oqimlar borligi sir emas. Bu jarayonlarning qaysi yo'nalishi mutaxassis tayyorlashga qo'l kelishini tahlil qilib chiqamiz. Dramatik teatr san'ati maktabining asoschilaridan biri, K.S. Stanislavskiy butun hayotini teatr aktyorini tarbiyalash va uning voyaga yetkazish uchun yagona tizim maktabini yaratishga bag'ishladi. Bu tizim maktabi aktyorni tarbiyalashdagi asosiy yo'nalish hisoblanadi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Uning ta'limotiga ko'ra, aktyor rol ustida ishlash jarayonida o'zi ijro etayotgan obrazning ruhiy holatiga kirishi va shu obrazning ichki kechimalari va tashqi holati bilan yashashi shart. Bu esa ijrochidan sahnada rolga xos holatni aniq tasavvur etishi va bu holatning mantiqiy sabablarini bilishi, shu obrazda ko'zda tutilgan g'oyaviy maqsadni tushunishi, idrok etishi hamda unga monand maqsadli aniq xatti-harakat topishi kerak. Yaratayotgan obrazning ichki dunyosini ocha olishi shart. U sahnada tirik inson, ya'ni jonli obrazning, hayotiy haqiqatini yaratilishiga erishmog'i darkor.

K.S. Stanislavskiy yaratgan nazariyani butun dunyo san'at maktablarida tan olinib, u san'atning rivojlanish bosqichlaridan muvoffaqiyatli o'tib, uni zamon talabiga moslagan holda rivojlantirilib, sahnada aktyor ijodini turli ko'rinishlarida unga ijobiy yondoshib, sayqal berib, undan nazariy va amaliy jihatdan foydalanib kelmoqdalar. Bunday ijodiy yondoshuvni K.S. Stanislavskiy o'z davrida “mening nazariyam to'g'ma emas”, deb aytib o'tgan edi. U yaratgan maktab yo'nalishi «kechinma» san'at deb ataladi. Mazkur maktab vakillari insoning ichki dunyosini, uning kechinmalarini haqqoniy holatini sahnaga olib chiqishga intiladi. Aktyor teatr sahnasida bitta spektaklda o'zi o'ynayotgan obraz talqinini, 100 marotaba o'ynalgan taqdirda ham, uning ichki ruhiy kechinmalarini har bir spektakl jarayonida qaytadan boshidan kechiradilar. Misol uchun, Shoh Edip rolini ijro etgan, O'zbekiston xalq artisti Shukur Burxonov obraz talqining ichki kechinmalarini har bir spektaklda qayta-qayta yangidan boshidan kechirar va o'z ijrosining tabiiyligi bilan tomoshabinlarni hayratda qoldirib, ularning olqishlariga sazovor bo'lar edi. Yoki Shekspir asaridagi Otello obrazini Abror Hidoyatov shunday mahorat bilan ijro etganki, uning ijrosi hozirgi kungacha tomoshabinlarning qalbidan joy olib, tillarda doston bo'lib kelmoqda. Bunday talatli aktyorlar safiga O'zbekiston xalq artistlaridan Soraxonim Eshonto'rayeva, Olim Xo'jayev, Yayraxonim Abdullayeva, Nabi Raximov, Rixsixonim Ibrohmova, Obid Yunisov, Razzoq Xamrayev va boshqalar ijodini misol qilsa arziydi.





K.S.Stanislavkiy takidlaganidek, "Rolga monand tuyg'ularni his etmoq uchun artist har safar, uni takrolaganda rol hayoti bilan yashamog'i lozim,"-deydi. Ikkinchi yo'nalish bu «ko'rsatish» san'ati maktabi deb yuritiladi. Bu ijod maktabining yirik vakillaridan biri B.Brext va Meyerxoldir. «Ko'rsatish» san'ati vakilining aktyori o'ynayotgan rolini repetitsiyada bir marotaba haqiqiy o'ynab, so'ng spektakl paytida obrazning haqiqiy talqin qilgan payti ya'ni, uning tashqi formasini eslab qolgan holda ijro etadi.

Demak, aktyorlik san'atida ikki yo'nalish maktabi mavjud ekan. Xo'sh unda teatri aktyorini qaysi maktab yo'nalishi asosida tarbiyalash kerak, degan savol tug'iladi? Bu savolga javob topish ikki bosqich yo'nalishidan iborat bo'ladi.

1. Teatr aktyorini tarbiyalashning birinchi bosqichi «kechinma» san'at maktabi asosida o'qitiladi. Yani, aktyorning o'z ustida ishlashi. O'quvchilar sahnada o'zini to'g'ri tuta olishi va erkin hatti-xarakatga qilishga erishish.

2. Teatr aktyorini tarbiyalashning ikkinchi bosqichi - "ko'rsatish" san'at maktabi yo'nalishida olib boriladi. Bu jarayondagi ijodiy ish tasviriy parchalar ustida ishlash bilan olib boriladi. Birinchi yillikda o'quvchilar o'z tanasini erkin boshqara olishi, shart-sharoitdan kelib chiqqan holda organik jihatdan jonli, erkin, maqsadga muvofiq, mantiqan to'g'ri xatti-harakat qilishni o'rganmog'i kerak. Shunda K.S.Stanislavskiy maktabi qoidalariga ko'ra «Aktyorning ijod jarayonidagi o'z ustida ishlashi» qoidasi tug'ri kechadi. Bu jarayonda o'quvchi aktyorlik mahorati elementlarini to'la-to'kis o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Bu yo'nalish bir necha bosqichlar asosida amalga oshiriladi.

3. Ikkinchi bosqichdagi ta'lim «ko'rsatish» aktyorlik san'ati maktabi asosida olib boriladi. «Ko'rsatish» san'ati vakillari sahnada organik holatning xatti-harakat jarayonini ko'rsatmay, balki harakatning natijasini ya'ni tashqi ko'rinishini ifodalaydi. Bu bosqichda o'quvchi ichki kechinma bilan ishlash jarayoniga duch keladi. Chunki teatrida obraz talqini, obrazning tashqi xatti-harakati, ya'ni plastikasi orqali amalga oshadi. Demak, teatr aktyorini tarbilashda "kechinma" san'at yo'lanishi, aktyorni shart-sharotdan kelib chiqqan holda aniq maqsadli, mantiqan, izchil, tabiiy holatda harakat qilish kerakligini o'rgatsa, "ko'rsatish" san'at yo'lanishi esa, obrazni ichki va tashqi holatini, maqsad, vazifalarini obrazning tashqi "plastik" hatti-harakatlar orqali amalga oshiriradi. Demak, teatr san'atdagi bu ikki yo'nalish, boshqa teatr turlaridan o'ta farqli bo'lgan holda kechar ekan. Teatr aktyorini tarbilashda bu ikki yo'lanishlarning ahamiyati birdek zarur

